

1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi.

1. Bog‘langan qo‘shma gap berilgan javobni aniqlang.
 - A) Kecha kechqurun yomg‘ir yog‘di, shuning uchun yo‘llar loyga to‘ldi.
 - B) U mashinani juda ehtiyyotkorlik bilan haydaydi, chunki yo‘llar sirpanchiq edi.
 - C) Ertalab shamol esa boshladi, daraxtlar shovullab qoldi.
 - D) U tez-tez kitob o‘qir edi, singlisi esa musiqa tinglashni yaxshi ko‘rardi.
2. Quyidagi parchada **qaysi asar** haqida ma’lumot berilganini aniqlang.

Insoniy ojizlik, loqaydlik, qo‘rqoqlik, irodasizlik fojiaga olib kelishi mumkinligi ishonarli tasvirlab beriladi. Bir lahzalik qo‘rqoqlik sababli asar qahramonining vafoti bayon etiladi. Bunda o‘zini aybdor sanagan qahramoning ruhiy holati va fojiali o‘limi tasvirlanadi.

 - A) “Ufq” romani (Said Ahmad)
 - B) “Chinor” romani (Asqad Muxtor)
 - C) “Omon ovchining o‘limi” hikoyasi (Shukur Xolmirzayev)
 - D) “Abulfayzzon” romani (Fitrat)
3. Berilgan gapda ishtirok etgan ko‘makchi qanday **mazmuniy** munosabat ifodalagan?

Ekologiyaning tozaligi uchun davlat miqqosida juda ko‘p islohotlar amalga oshirilishi lozim.

 - A) maqsad ma’nosi
 - B) vosita ma’nosi
 - C) sabab ma’nosi
 - D) fikr mavzusi ma’nosi

4. Quyidagi gapda alohida ajratib ko‘rsatilgan so‘z **tobelanib** bog‘langan birlikni aniqlang.

O‘rta Osiyo hududida aholi azaldan katta suv manbalari – daryo va anhorlar bo‘ylab, bo‘liq tuproqli vodiylarda yashaganlar, chorva va ziroatchilik bilan shug‘ullanib kelganlar.

- A) O‘rta Osiyo
- B) yashaganlar
- C) vodiylarda
- D) shug‘ullanib kelganlar

5. Abdulla Avloniyning “**Xurus ila bo‘ri**” hikoyati haqidagi **to‘g‘ri** ma’lumotni aniqlang.

- A) Hikoyatda kelishmovchiliklar, bir-biriga adovat ko‘zi bilan boqish qanchalik kulfatlarga sabab bo‘lishi ifodalangan.
- B) Hikoyatda razillik, aldov va hiyla-makr qilishning oqibatlari hayvonlar misolida ochib berilgan.
- C) Hikoyatda soxta do‘slikning asosiy belgilari hayotiy voqealar asosida bayon etilgan.
- D) Hikoyatda saxovatli bo‘lish, saxovatpeshalikning sifatlari yosh bolakay misolida ochib berilgan.

6. Qaysi javobdagagi gapda **erka** so‘zi **ko‘chma ma’noda** qo‘llangan?

- A) Munis tengqurlariga o‘xshamasdi: juda erka edi, serjahl edi.
- B) Uyda erka o‘sgan tantiq bola bo‘lgani uchun hech kim e’tibor bermadi.
- C) Erka qizcha bilan mehribon otaning o‘rtasiga raxna solish johillik
- D) Hayot go‘zal va maroqlidir, shuning uchun erka ko‘ngil doim shodlanadi.



7. Qaysi javobdagi gapda **tushum** kelishigi **belgisiz** qo'llangan?
- A) O'g'ilni erkabal o'stirmoq xato,
Undaylar hayotda ko'rар ko'p jafo.

B) So'zla, javobiga chiday olsang o'zing,
Arpa ekib bug'doy ko'rarmi ko'zing?!

C) Yiqilganlar qo'lin tutganlar oxir,
Yiqilsa ham bo'lmas anduhga ajr.

D) G'arazgo'y so'ziga qulq solmagil,
Agar so'zlasa ko'p, chuqur o'ylagil.
8. Maqsud Shayxzodaning "**Jaloliddin Manguberdi**" tragediyasi haqidagi **to'g'ri** ma'lumotni aniqlang.
- A) Asarda tarix sahifalariga murojaat qilinib, insoniy erk uchun kurashning abadiyligi ifoda etilgani va bu kurash yo'lida isyon qilgan insonlar madh etilgan.

B) Asarda mo'g'il istilochilariga qarshi kurashgan xalq qahramoni va unga xos bo'lgan vatanparvarlik sifatlari bayon etilgan.

C) Asarda ruhiy olami orqali kechagi kunini unutmagan, bobolar amal qilgan yuksak udumlar asosida yashagan chin inson haqidagi ma'lumotlar aks etgan.

D) Asarda Chingizzon avlodidan bo'lмагани bois bir muddat taxtga egalik qila olmagan qahramon holati tasvirlangan.
9. Qaysi javobdagi gapda **nozik** so'zi "zaif, nimjon" mazmunida qo'llangan?
- A) Bog'dagi har bir o'simlik – nozik maysalardan katta daraxtlarga qadar – barchasi uning uchun juda aziz.

B) Dutorning nozik torlaridan chiqqan sado atrofga eshitilmasa-da, lekin uni yigitlar zimdan tinglashardi.

C) O'zining mayda qadami, nozik harakatlari bilan davraga kirib keldi, atrofdagilarga ko'z qirini tashladi.

D) "Ukamni durustroq joyga o'tnashtiring, o'zi nozik yigit, tag'in shamollab qolmasin", – dedi.
10. "Kuntug'mish" dostoni haqidagi **to'g'ri** hukmni aniqlang.
- A) "Bizlar ham bir shohlik shavkatini qilsak, ovga chiqib ketsak, farzandlar yer yuziga tushsa, suyunchi deb, bir nechalar oldimizga yo'lga chiqib, bizlardan tilla tanga in'om olsa", – deb o'ylab biylar ovga jo'nab ketadi.

B) Mard polvon "Yor deyman-ku, nomus-orga boraman" deya begona yurtga otlangan o'g'liga: "Kechsang yomon bo'lar ota-onadan", "Bir qiz uchun unutmagan bizlarni", deya nasihatlar beradi.

C) Xon qizning suratini ko'rib bildiki, o'g'li bu go'zaldan boshqani demas. Xon noiloj javob bermoqchi bo'lib lashkarlarini yig'adi, "Musofirchilikda yo zar yarar, yo zo'r yarar kuningga", deb qirq yigit beradi, qirq xachirga zar ortib beradi.

D) Boshqa mamlakatga safarga ketgan xon farzandli bo'lganini suyunchilagan kishiga "ayamasdan tanga-tilla beraman, balki qo'rg'onbiy qilarman", deya niyat qiladi.




2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi.


11. Qaysi gapda **tire** tinish belgisi bilan bog'liq punktuatsion **xatolik** kuzatilgan?
- Bobolarimiz demishlar: "So'zlaganing kumush bo'lsa, tek turganing – oltin".
 - Otamurod miyig‘ida kulib qo'ydi: biz piyoda – biz boqqanlar yurdi otda.
 - Dono xalqimiz aytadi: "Tuyaning tashigani – tilla, yegani yantoqdir".
 - "Aytganing – kumush, aytmaganing oltin" deganimizda naqadar haqmiz!

12. O‘zaro **ma’nodoshlik** hosil qila oladigan so‘zlarni aniqlang.


A)




B)



C)



D)



13. Quyidagi gapda qanday **sintaksis birliklari** ishtirok etgan?

Tavba, ellik ikki gettardagi bog‘ va ko‘chatzorlar yo‘q qilinadi-yu, atrof-muhitga zarar yetmaydimi?!

- so‘z-gap;
- uyushgan bo‘lak;
- kirish so‘z;
- ritorik so‘roq gap;
- atov gap;
- ajratilgan bo‘lak.

- A) 1, 3, 5 B) 2, 3, 4
C) 2, 4, 5 D) 1, 2, 3

14. Nodar Dumbadzening “**Hellodos**” hikoyasi haqidagi **xato** hukmnini aniqlang.

- Asarda bolalar hayoti, ular orasidagi murakkab munosabatlar tasvirlangan.
- Asarda vatanparvarlik tuyg‘usi bolalar orqali o‘ziga xos tarzda ifoda etilgan.
- Asarda jangarilik hamda vatansevarlik tuyg‘ularini o‘zida mujassamlashtirgan qahramon madh etiladi.
- Asarda insoniyat boshiga tushgan falokat – urush keltirgan balolar murg‘ak o‘smir taqdirida aks ettirilgan.

15. Quyidagi gapda qatnashgan **sifatlar** haqidagi **to‘g‘ri** hukmnini aniqlang.

Bahorgi toshqin payti qirg‘oq o‘pirilib, tol anhorga qulaganda baquvvat shoxlardan biri narigi qirg‘oqqa tiralib uni batamom qulashdan asrab qolgan.

- Sifatning faqat bir ma’no turi ishtirok etgan.
- Sifatning tuzilishiga ko‘ra faqat bir turi ishtirok etgan.
- Sifat darajalarining ikki turi ishtirok etgan.
- Sifatlar tub va yasama so‘zlar bilan ifodalangan.





16. Shukur Xolmirzayevning “**Ot egasi**” hikoyasidagi **Inod** obraziga **to‘g‘ri** ta’rif berilgan javobni aniqlang.
- A) Qadrdonlaridan *judo bo‘lgach qalb jarohatlariga tug‘ilgan qishlog‘i va kasbiga bo‘lgan muhabbatidan malham topadi.*
- B) *Hukumatningadolatsiz va chirkin siyoatiga o‘z isyonini bildirish maqsadida jonojon qishlog‘ini tark etgan inson hisoblanadi.*
- C) *Hayvonlarga bo‘lgan shafqatsiz munosabati tufayli o‘zi ham shunday shafqatsizlikka uchragan, fojiali o‘lim topgan qahramon hisoblanadi.*
- D) *Hukumat qonunlarini ro‘kach qilib o‘zining manfaati yo‘lida qishloqdoshini qadrli otidan *judo* qilgan mansabdor hisoblanadi.*
17. Imloviy jihatdan **to‘g‘ri** yozilgan so‘zlar qatorini aniqlang.
- A) mutaxassis, intellekt, jangavor
- B) azador, kislarod, xushomad
- C) nogahon, olomon, pachaqlamoq
- D) ustomon, nadomad, taassurot
18. Quyidagi gap haqidagi **xato** hukmni aniqlang.
Sohada sifat ko‘rsatkichlarining o‘sib borayotgani ijobiy o‘zgarishlarga xizmat qilmoqda.
- A) Sifat asosga fe’l yasovchi qo‘srimcha qo‘shilgan.
- B) Fe’l asosga ot yasovchi qo‘sricha qo‘shilgan.
- C) Ot asosga sifat yasovchi qo‘srimcha qo‘shilgan.
- D) So‘zni so‘zga qo‘sish orqali yasama so‘z hosil qilingan.
19. Abdulla Qahhorning “**O‘g‘ri**” hikoyasidan olingan quyidagi parchada ifodalangan **mazmunni** aniqlang.
- *Qidirtirsakmikin-a?* – dedi amin chinchalog‘ini etigining ostiga artib.
- *Suyunchisi nima bo‘ladi?* *Suyunchidan hashna olib kelinmadimi?*
- Aminning bu gapi Qobil boboga “Ma, ho‘kizing”, – deganday bo‘lib ketdi.*
- *Kam bo‘lmang, – dedi pulni uzatib, – yana xizmatingizdaman.*
- *Men beto‘xtov pristavga xabar beraman. O‘zi chaqirtiradi.*
- A) *Insofli vaadolatli rahbarlarning xalq uchun jon kuydirishi ifodalangan.*
- B) *Jamiyatda qallobliklar va o‘g‘riliklar ko‘paygani ifodalangan.*
- C) *Mansab vazifasidan o‘z manfaati yo‘lida foydalangan amaldor qoralangan.*
- D) *Millatning xalq dardini xolis eshituvchi asl farzandlari madh etilgan.*
20. Sharof Boshbekovning “**Temir xotin**” komediyasidan olingan parchada **ifodalangan** mazmunni aniqlang.
- *Progress bor. Ilgari tezak yoqilardi, hozir tezakni solyarka bilan yoqayapmiz. Yaxshi yonayapti. To‘g‘ri ovqatdan sal-pal hidi keladi-yu, lekin o‘rganib ketar ekan odam.*
- A) *Parchada turmush tarzidan norozi bo‘lgan insonning qarashlari tasvirlangan.*
- B) *Parchada amalgalashirilayotgan islohotlar xalqning turmush darajasini yaxshilay olmayotgani tasvirlangan.*
- C) *Parchada yaratilgan qulay sharoitdan foydalana olmayotgan insonlar tasvirlangan.*
- D) *Parchada ta’lim, ilm-fanda ortda qolayotgan millatning qiyofasi tasvirlangan.*



**3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi.**

21. Quyidagi gapda qatnashgan so‘zlarning **shakl va mazmun** munosabati haqida **xato** hukm berilgan javobni aniqlang.
“Gap ko‘p – ko‘mir oz” iborasida men chuqur ma’no ko‘rmadim. Suhbat cho‘zilsa, sandalning cho‘g‘i sovib qolgani uchun shunday deydilarmi?
- A) Gapdagi “oz” so‘zi “oz” fe’li bilan shakldoshlikni hosil qiladi.
- B) Gapdagi “cho‘zilmoq” fe’li ko‘chma ma’noda qo‘llangan.
- C) Gapdagi “cho‘g” so‘zi “cho‘q” so‘zi bilan paronimlikni yuzaga chiqargan.
- D) Gapda sandal so‘zi tancha so‘zi bilan ma’nodoshlikni yuzaga chiqaradi.
22. Quyidagi gapda qatnashgan **fe’llar** haqidagi **xato** hukmni aniqlang.
Tezda barchasi qaytadan hisob-kitob qilingay, ortiqcha olingan haq o‘z egalariga qaytarilgaydir, siz esa buyruqqa itoat qilganingiz uchun aybli sanalmagaysiz.
- A) Fe’lning tuzilishiga ko‘ra ikki turi ishtirok etgan.
- B) Barcha yasama fe’llar so‘zni so‘zga qo‘sish orqali hosil qilingan.
- C) Fe’l nisbatlarining ikki turi ishtirok etgan.
- D) Felning vazifa shakliga ko‘ra uch turi ishtirok etgan.

23. Erkin Vohidovning “**Nido**” dostonidan olingan quyidagi parchada ifodalangan **mazmunni** aniqlang.

*Xayolning tumanli pardasi aro
Yillar ko‘z oldimda charx urayotir.
Qishloq ko‘chasidan zanjiday qaro
Olov bolaligim yugurayotir.
Dunyo qayg‘usiga bo‘lmagan oshno,
Qah-qah urayotir, barq urayotir.
Bilmas, boshi uzra bulutli samo
Chaqmoq chaqayotir, guldurayotir.
Bilmas, yaralangan bu majruh dunyo
Qasos so‘rayotir, bong urayotir...*

A) “Bulutli samo” ifodasi orqali xalq boshiga kelayotgan g‘am-tashvishli kunlar nazarda tutilgan.

B) “Qah-qah urayotir” ifodasi orqali bosqinchilarning zaharxanda kulgisi nazarda tutilgan.

C) “Zanjiday qaro” ifodasi orqali mamlakat bolalarining zanjirband etilgani nazarda tutilgan.

D) “Majruh dunyo” ifodasi orqali dushmanga mag‘lub bo‘lgan millat nazarda tutilgan.

24. Quyidagi gap haqida **xato** hukm berilgan javobni aniqlang.

Jimgina boqib turgan bu ko‘zlar juda tanish, qiziq, qayerda ko‘rganman, hech qayerda duch kelmaganmanmi ularga?

A) O‘rin holi fe’l kesimga tobelangan.

B) Ravish holi sifatlovchi aniqlovchiga tobelangan.

C) Vositali to‘ldiruvchi fe’l kesimga tobelangan.

D) Sifatlovchi aniqlovchi ot kesimga tobelangan.



25. Jadval asosida asarlar va ularga mos ma'lumotlarni muvofiqlashtiring.

| Asarlar | Asarlar haqida ma'lumotlar |
|---|--|
| 1) "Eng so'nggi xazina" she'ri (Omon Matchon) | a) <i>Urush maydonlarida jang qilayotgan ona tasvirlangan.</i> |
| 2) "Turkiylar" she'ri (Shavkat rahmon) | b) <i>Dushmanga qarshi turolmagan musulmonlar tanqid qilingan.</i> |
| 3) "Begim sizni tabiat..." she'ri (Halima Xudoyberdiyeva) | c) <i>Urushga ketgan farzandi ko'yida izardirob chekayotgan ota tasvirlangan.</i> d) <i>Farzandizlik azobini tortgan ayol qismati bayon etilgan.</i> e) <i>Milliy g'ururning yo'q bo'lishi ulkan fojia ekani tasvirlangan.</i> |

A) 1-b 2-d 3-a B) 1-e 2-a 3-d C) 1-d 2-c 3-b D) 1-e 2-b 3-d

Quyidagi she'riy parcha asosida **26-27-test** topshiriqlarini bajaring.

*Yana ne qad jilva qildikim, demakdin lolmen,
Yona qaysi zulf ochildikim, parishonholmen.*

*Zafdin qaddim alif boldi, ul ikki lomi – zulf
Har yonimdin fitnagar, vah ne ajab, gar lolmen.*

26. Yuqoridagi bayt haqidagi **xato** hukmni aniqlang.

- A) *Oshiqning qaddi "alif" harfiga qiyoslangan.*
- B) *"Lolmen" so'zi istixroj san'ati asosida hosil qilingan.*
- C) *Yorning sochi "lom" harfiga o'xshatilgan.*
- D) *Yana va yona so'zlari tajnis san'atini yuzaga chiqargan.*

27. Yuqoridagi bayt haqida **to'g'ri** ma'lumot berilgan javobni aniqlang.

- A) *Baytda mutlaq qofiyadan foydalanilgan.*
- B) *Baytda yig'iq radifdan foydalanilgan.*
- C) *Baytda n tovushi raviy vazifasida qo'llangan.*
- D) *Baytda talmeh san'ati aks etgan.*





Matnni o'qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

SICHQONLAR

Sichqonlar yer yuzida keng tarqalgan kemiruvchilar bo'lib, ularning ko'p juda ko'p turi fanga ma'lum. *[1]Sichqonlar ko'pincha uy hayvonlari, laboratoriya tadqiqotlari obyekti yoki zasarli kemiruvchi sifatida uchraydi.* Ular qisqa umr ko'rurvchi, tez moslashuvchi va kasallik tarqatuvchi jonzot sifatida tanilgan. Ularning o'rtacha uzunligi 7-10 smni tashkil etadi. *[2]Quloglari katta va sezgir, ko'zлari esa nisbatan kichik va ko'rish qobiliyati past.* Sichqonlar ko'proq hid va teginish orqali muhitni anglaydilar. Ularning oldingi kesuvchi tishlari doimiy o'sadi va zich oziq-ovqatlarni maydalash uchun maxsus moslashgan. Ular tunda faol harakatlanadi.

[3]Sichqonlar juda tez ko'payadigan hayvonlar bo'lib, bir urg'ochisi yilda 6-12 tagacha bolalaydi. Sichqonlar tabiatda ham muhim ro'l o'ynaydi. Ular oziq-ovqat zanjirining bir qismi bo'lib, ko'plab yirtqichlar, jumladan, qushlar va yirtqich sute nimizuvchilar uchun oziq bo'lib xizmat qiladi. *[4]Bundan tashqari, sichqonlar kasallikkarni tarqatish manbasi bo'lishi ham mumkin.*

28. Matn mazmuniga mos **to'g'ri** ma'lumot berilgan javobni aniqlang.

- A) Sichqonlardagi ko'rish qobiliyatining pastligi yirtqichlar hujumiga sabab bo'ladı.
- B) Sichqonlar xonakilashtirilgan jonzot sifatida ham uchraydi.
- C) Sichqonlarda hid bilish funksiyasi nisbatan sust rivojlangan.
- D) Sichqonlar qush va yirtqich hayvonlarning qoldiqlari bilan oziqlanadi.

29. Qaysi raqamda ajratib ko'rsatilgan gap **fikr takrori** orqali matnning mazmuniy tuzilishida uslubiy **xatolikni** yuzaga chiqargan?

- A) 1
- B) 2
- C) 3
- D) 4

30. Matnda **aks etgan** ma'lumotni aniqlang.

- A) Sichqonlar sovuqqa chidamli jonzot turi hisoblanadi.
- B) Sichqonlardan farmatsevtika sohasida ham foydalaniladi.
- C) Sichqonlarda eshitish mexanizmi yaxshi rivojlangan.
- D) Sichqonlar tez harakatlanuvchi hayvon hisoblanadi.

